

**MALAKAVIY O'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK
TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
JARAYONIDA STEAM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti (PhD)

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida v.b.dotsent

(PhD) **Qayumova D.N**

Annotatsiya

Mazkur maqolada malakaviy o'quv amaliyotida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish metodikasining ahamiyati, xalqaro tajribalar asoslangan ta'limni tashkil etishda bo'lajak pedagogning o'rni haqida ma'lumotlar asosli o'rin olgan. Bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy amaliyot jarayonida STEAM texnologiyasi bo'yicha bilim ko'nikmalarini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatli jarayon ekanligi yoritilgan.

Annotation

In this article, information about the importance of the methodology for using STEAM technology in the development of Kasbi competencies of future educators in the practice of qualification training, the role of the future educator in the organization of education on the basis of international experiences are well-established. It is noted that the development of knowledge skills in STEAM technology in the process of qualification practice of future educators is an important process in the development of professional competencies.

Аннотация

В данной статье обосновано значение методики использования технологии Steam в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов в профессиональной образовательной практике, роль будущего педагога в организации образования на основе международного опыта. Обучение будущих педагогов в процессе профессиональной практики по технологии Steam является важным процессом в развитии их профессиональных компетенций.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida, STEAM texnologiyasi bolalar uchun haqiqiy hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirishi uchun sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malakaviy pedagog amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga STEAM-texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun samarali muhit yaratish usullarini o'rganadilar. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildiradi: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odoq-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq

qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”¹.

Ta’lim sohasida bo’layotgan islohotlari bo’lajak pedagog kadrlarni muayyan darajada intellektual salohiyatining yuzaga chiqishiga, uning jamiyatda o’z o’rnini topishiga katta yordam berdi. Buni biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga bergan javobidan ham anglashimiz mumkin: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo’lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam - o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi”².

Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda bo’lajak pedagog tarbiyachilarning ham ahr tamonlama bilimli, mahoratli bo’lishi talab etiladi.

E’tirof etish joizki, ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa bo’lajak pedagog kadrlarni malakaviy amaliyot jarayonida tarbiyalanuvchilarga har tamonlama STEAM texnologiyasi asosida ta’lim berish har tamonlam barkamol shaxs tarbiyalashda muhim jarayondir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida bo’lajak pedagog tarbiyachilarning bilim, ko‘nikma, malakalari tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart – sharoitlarga alohida hamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiyasida¹ ular quyidagicha izohlanadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda;
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda;
- ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;

¹ Mirziyoyev Sh.M “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.” T.:O‘zbekiston, 2017

² Азизова З.Ф.Кўғирчоқ театри воситасида мактабгача катта ёшдаги болаларда ахлокий-эстетик сифатларни шакллантириш. п.ф.ф. ф.д. (PhD) дисс. автореферати. Т-2020.

- qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak pedagoglarni innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada samarali amalga oshirish muhimdir. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar ham maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi ta'lim jarayoni va uning samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi maxsus tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi. Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda.

Bu metodika bo'lajak pedagog tarbiyachilarni ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabgacha ta'lim tashkilotida va maktabdan tashqarida loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishdan tashqari, texnologiya bolalarning ijodkorligini ham ko'rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv bolalarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, bolalar ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o'rganadi. Bunday vazifalar yordamida bolalar g'oyalarni nafaqat o'ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o'rganadi. Shu tariqa, bolalar o'z faoliyatini oldiga qo'yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o'rganadi.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak pedagoglar STEAM texnologiyalaridan foydalanish bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- ❖ Muammolarni keng qamrovli tushunish
- ❖ Ijodiy fikrlash
- ❖ Muhandislik yondashuv
- ❖ Tanqidiy fikrlash
- ❖ Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash
- ❖ Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM - ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida

rivojlanmoqda va amaliy yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan.

Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni.T; 2020 yil
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavurlarini shakllantirish. T.: "Innovasiya-Ziyo", 2020
4. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
5. Махмудова, Д. А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 143-147.
6. Ergasheva, B. (2022). Talabalarining pedagogik moderinizatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405
7. Ramazonova, B. S., & Gafforova, D. A. (2022). Technologies for developing creativity and competencies of future pedagogues in the process of practice. *экономика и социум*, (10-2 (101)), 158-161
8. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni ta'lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta'minlashning amaliyotdagi holati. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
9. Sadriddinovna, R. B. (2022). Fundamentals of development of students'learning competencies in the course of pedagogical practice. *Thematics Journal of Education*, 7(4).
10. Yakubova, Z. Z. (2022, October). Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishi va tarbiyasiga professional yordam ko'rsatishda oila, mahalla va maktab bilan hamkorlik ishlari. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
11. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in preparation of future teachers for professional activity. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2314-2320.
12. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.
13. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.

14. Sadriddinova, R. B. (2022, October). Significance of developing students' learning competencies in the practice. in archive of Conferences (pp. 35-37).

15. Barziyev, O, H. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. Scientific journal of Fergana State University 3 (3), 108-114

16. Barziyev, O, H. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ 3 (3), 108-114

17. Barziyev, O, H. (2021) “LYRICAL INTERPRETATION OF “I” IN THE POETRY OF ANBAR OTIN, DILSHODI BARNO AND SAMAR BONU”. “CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES” 2 (ISSN 2767-3758), 61-66.

